



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI IQTISODIYOT VA MOLIYA VAZIRLIGI

100017, Toshkent sh., Istiqlol ko'chasi 29-uy, Tel.: (998 71) 239-15-69, 239-12-52
www.imv.uz, info@imv.uz

QAROR 07/16-01-02/136

"22" august 2023 yil

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi (keying o'rinlarda – Vazirlik) "O'zbek geologiya qidiruv" aksiyadorlik jamiyati (keying o'rinlarda – jamiyat) yagona aksiyadorining 2023-yil 5-iyuldagi 94/09-3-qr-sonli qaroriga hamda "Qimmatli qog'ozlar emissiyasi va emissiyaviy qimmatli qog'ozlar chiqarilishlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish qoidalarini"ning (ro'yxat 2000-son, 30.08.2009 y.) 92 bandiga asosan

QAROR QILADI:

1. Jamiyat ustav fondi kamaytirilishi munosabati bilan jamiyatning 2022-yil 13-aprelda P0964-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan aksiyalar chiqarilishlariga o'zgartirishlar kiritish uchun jamiyat tomonidan Vazirlikka quyidagi hujjatlar taqdim etilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin:

- jamiyatning 2023-yil 19-iyuldagi 01-14-656-sonli arizasi;
- avval ro'yxatdan o'tkazilgan aksiyalar chiqarilishlariga kiritilgan o'zgartirishlar matni (3 nusxa);
- jamiyat yagona aksiyadorining 2023-yil 5-iyuldagi 94/09-3-qr-sonli qarori nusxasi;
- taqdim etilgan hujjatlar ro'yxati.

2. Jamiyat ustav fondi kamaytirilishi munosabati bilan jamiyatning 2022-yil 13-aprelda P0964-son bilan davlat ro'yxatidan o'tgan aksiyalar chiqarilishlariga kiritiladigan o'zgartirishlar matni davlat ro'yxatidan o'tkazilsin.

Jamiyatning 2022-yil 13-aprelda P0964-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan aksiyalar chiqarilishlariga asosan chiqarilgan nominal qiymati 100 so'm bo'lgan 801 287 349 800 so'mlik 8 012 873 498 dona oddiy aksiyalardan 92 106 480 600 so'mlik 921 064 806 dona oddiy aksiyalar bekor qilinsin va jami 709 180 869 200 so'mlik 7 091 808 692 dona oddiy aksiyalar muomalada qoldirilsin.

3. Vazirlikning Kapital bozorini rivojlantirish departamenti Qimmatli qog'ozlar chiqarilishini ro'yxatga olish bo'limi:

- Vazirlik tomonidan jamiyatning avval ro'yxatga olingan aksiyalar chiqarilishlariga o'zgartirishlar kiritilganligi munosabati bilan Emissiyaviy qimmatli qog'ozlar chiqarilishlarining yagona davlat reyestriga tegishli yozuvlar kiritish;

- ushbu qarorning bir nusxasini jamiyatga, bir nusxasini Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysiga ma'lumotlar bazasiga tegishli o'zgartirish kiritish uchun taqdim etish topshirilsin.

4. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish Kapital va sug'urta bozorlarini rivojlantirish deartamenti Qimmatli qog'ozlar chiqarilishini ro'yxatga olish bo'limiga yuklatilsin.

Vazir o'rinbosari



G. Raximova

«ТАСДИҚЛАНГАН»
Ўзбекистон Республикаси
Давлат активларини бошқариш агентлиги



Директор ўринбосари
А.Миралиев

2023 йил «05» 94/09-3-91 -сон




«РЎЙХАТГА ОЛИНГАН»
Ўзбекистон Республикаси
Иқтисодиёт ва молия вазирлиги



Вазир ўринбосари
Г.Рахимова

2023 йил «22» 07/46-01-02/136-сон
М.Ў.



Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги томонидан 2022 йил 13 апрелда
P0964-сон билан рўйхатдан ўтказилган “Ўзбек геология қидирув” акциядорлик
жамиятининг қимматли қоғозлар чиқарилиши тўғрисидаги қарорига
киритилаётган ўзгартиришлар
МАТНИ

Амалдаги тахрир	Янги тахрир
2022 йил 13 апрелдаги P0964-сонли	
Титул варағи	Титул варағи
Номинал қиймати 100 сўм бўлган 8 012 873 498 дона эгасининг номи ёзилган ҳужжатсиз шаклдаги оддий акциялар.	Номинал қиймати 100 сўм бўлган 7 091 808 692 дона эгасининг номи ёзилган ҳужжатсиз шаклдаги оддий акциялар.
4-банд. Ушбу чиқарилишдаги акцияларнинг сони (дона) – 8 012 873 498 (саккиз миллиард ўн икки миллион саккиз юз етмиш уч минг тўрт юз тўқсон саккиз) дона.	4-банд. Ушбу чиқарилишдаги акцияларнинг сони (дона) – 7 091 808 692 (етти миллиард тўқсон бир миллион саккиз юз саккиз минг олти юз тўқсон икки) дона.
5-банд. Ушбу чиқарилишнинг умумий ҳажми (сўм) – 801 287 349 800 (саккиз юз бир миллиард икки юз саксон етти миллион уч юз қирқ тўққиз минг саккиз юз) сўм.	5-банд. Ушбу чиқарилишнинг умумий ҳажми (сўм) – 709 180 869 200 (етти юз тўққиз миллиард бир юз саксон миллион саккиз юз олтмиш тўққиз минг икки юз) сўм.
8. Жамият устав капиталининг миқдори (сўм): 801 287 349 800 (саккиз юз бир миллиард икки юз саксон етти миллион уч юз қирқ тўққиз минг саккиз юз) сўм.	8. Жамият устав капиталининг миқдори (сўм): 709 180 869 200 (етти юз тўққиз миллиард бир юз саксон миллион саккиз юз олтмиш тўққиз минг икки юз) сўм.




Бошқарув раиси

Бош бухгалтер

М.Ў.



Алимов Шамсиддин Пахритдинович



Шигапов Эльдар Азатович

Сана: 2023 йил « ____ » _____